

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**ATAMIRZAYEV IBROXIM XAKIMOVICH**

**HUQUQIY TIZIMNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA  
SHAXSNING HUQUQIY IJTIMOIYLASHUVI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)**

**Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation**

**Atamirzayev Ibroxim Hakimovich**

Huquqiy tizimni modernizatsiya qilish sharoitida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi .....3

**Атамирзаев Иброхим Хакимович**

Правовая социализация личности в условиях модернизации правовой системы .....21

**Atamirzaev Ibrokhir Khakimovich**

Legal socialization of the individual in the context of modernization of the legal system .....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....45

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**ATAMIRZAYEV IBROXIM XAKIMOVICH**

**HUQUQIY TIZIMNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA  
SHAXSNING HUQUQIY IJTIMOIYLASHUVI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Yu284 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti ([www.mgixu.uz](http://www.mgixu.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Odilqoriyev Xojimurod To‘xtamurodovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Zulfiqarov Sherzod Xurramovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yakubov Shuxrat Ummataliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2024-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_ da soat \_\_\_\_:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +998971 230-32-71; faks: +99871 230-32-50; [mgixu@email.uz](mailto:mgixu@email.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +99871 230-32-71; faks: +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2024-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.X.Rustambayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, yu.f.d., professor

**N.I.Xayriyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, yu.f.d., professor

**M.B.Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yu.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda insonlarni ijtimoiy – siyosiy hayotning faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyalash tizimida har bir shaxsning siyosiy-huquqiy ijtimoiylashuvini ta'minlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Chunki, davlat va jamiyat hayotida, mamlakatlarning siyosiy-huquqiy tizimida shaxsning tashabbusli hamda faol ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan samarali institutlarni hamda huquqiy mexanizmlarni yaratish ustuvor o'rin tutmoqda. Globallashtirish jarayonlari avj olayotgan hozirgi vaziyatda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashda har bir shaxsning faol pozitsiyasi, ijtimoiylashganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning ilg'or demokratik mamlakatlarida inson fenomenining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy-ruhiy jihatlarini chuqur anglashga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi individlarning umumiy ijtimoiy, shu jumladan, huquqiy ijtimoiylashuvi yalpi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy shartlaridan biriga aylanganini ko'rsatmoqda. Aksariyat xorijiy mamlakatlarda shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davri mobaynida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlashga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda "shaxs-jamiyat-davlat" uchligining manfaatlarini muvofiqlashtirishning institutsional, konstitutsiyaviy-huquqiy mezonlari yaratilib, izchil takomillashtirilib kelinmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida, "O'zbekiston–2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishida<sup>1</sup> hamda davlatimiz rahbarining O'zbekiston xalqiga va Oliy Majlisga Murojaatnomasida, ayniqsa O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda barcha fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, tashabbuskorligi, demokratik qadriyatlarni o'zlashtirishi hamda yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lishlari alohida ta'kidlandi. Shu bois yangi O'zbekistonni qaror toptirish, huquqiy tizimni modernizatsiya qilish sharoitida individlarning puxta huquqiy bilimlarga ega bo'lishi, qonunlarni hurmatlashi, o'z huquq va majburiyatlarini realizatsiya qilishga mas'uliyat bilan yondashishlarini shakllantirish nihoyatda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (1992), O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (2020) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son «Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni "«O'zbekiston — 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/docs/6600413>

to'g'risida», 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida», 2023-yil 8-maydagi PF-67-son «Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida», gi Farmonlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi huquqiy tizimni takomillashtirish borasida ham keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Bular tarkibiga amaliy tadbirlar bilan birga ilmiy izlanishlarni ham kiritishimiz lozim. Aynan ilmiy izlanishlar natijasida olingan xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliy tadbirlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy-huquqiy davlatni barpo etish milliy huquqiy tizimni isloh qilish va modernizatsiyalash sharoitida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi masalalarining ayrim jihatlari mamlakatimizning huquqshunos olimlari: M.Axmedshayeva, H.B.Boboyev, Z.M.Islomov, Sh.Jalilov, N.Javliyev, Sh.Zulfiqorov, M.Najimov, H.T.Odilqoriyev, M.X.Rustambayev, A.X.Saidov, Sh.Z.O'razayev, R.R.Xakimov, O.T.Husanov, I.T.Tulteyev, F.P.Hayitboyev, Sh.U.Yakubov<sup>1</sup> va boshqalarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi u yoki bu darajada tadqiq etilgan manbalarni uchratish mumkin. Masalan, professor X.T.Odilqoriyev konstitutsiyaviy-huquqiy ijtimoiylashuv haqida, professor Sh.U.Yakubov huquqiy tizimni modernizatsiyalash, aholi huquqiy madaniyatini shakllantirish va yu.f.n. N.Saburov fuqaroning huquqiy ijtimoiylashuvi haqida o'z ilmiy asarlarida tahlil yuritganlar.

Huquqiy tizimda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi masalasida xorijiy mamlakatlar huquqshunoslari: Alekseyev S.S., Vasilyev A.M., Giddens E., Kudryavsev V., Kuxaruk T.V., Lazerev V.V., Luparyev P.P., Marchenko M.N., Matuzov N.I., Nersesyans V.S. va boshqalarning ilmiy asarlarida ham bir qator fikrlar uchraydi, lekin ushbu mavzu hozirga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Hozirgi davr talabi, ijtimoiy-huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadi hamda undan kelib chiqqan holda belgilangan jamiyatni yangilash va isloh qilish, mamlakatni modernizatsiyalashdek vazifalar huquqiy tizimni zamon talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiq etish va unda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi masalalarini o'rganish bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri ekanligini belgilaydi. Yuqorida keltirilganlar mazkur

---

<sup>1</sup> Mazkur olimlar ilmiy ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

muammoning ilmiy jihatdan tahlil qilish maqsadida tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga xizmat qilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Huquqiy tizimni modernizatsiya qilish sharoitida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi» mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimini modernizatsiyalash sharoitida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi mexanizmlarini takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish, huquqiy tizim va uning tarkibiy elementlari, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvining metodologik masalalarini, individning ijtimoiy huquqiy muhit bilan o'zaro dialektik aloqadorligi jarayonini tahlil qilish;

huquqiy tizimni modernizatsiya qilishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga hamda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga oid ta'limotlar, g'oya va qarashlarni ilmiy talqin qilish, olimlarning bu boradagi fikrlarini qiyoslash orqali yoritish;

individlarning huquqiy ijtimoiylashuvining yuridik tabiati, mohiyati, funksiyalari va shakllarini ilmiy tahlil etish;

O'zbekiston milliy huquqiy tizimini modernizatsiyalash sharoitida shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining muhim jihatlarini tadqiq etish;

shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonidagi mavjud muammolarni o'rganish, ularning yuzaga kelish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi masalalariga oid ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va dissertatsiyada ko'zda tutilgan muammolarni hal etishda ularga tayanish;

shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining bosqichlari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mazkur jarayonning obyektiv va subyektiv jihatlarini teran ilmiy tahlil qilish;

shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya va ta'limning o'rnini ko'rsatish;

mazkur muammoga tegishli bo'lgan empirik materiallarni o'rganish va tahlil qilish hamda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Yangi O'zbekiston milliy huquqiy tizimini modernizatsiyalash sharoitida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga oid ta'limotlar, qarashlar, g'oyalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda uni shakllantirish jarayoniga oid nazariy hamda amaliy masalalar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** mamlakatimizda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvining yuridik tabiatini, mohiyatini, prinsiplari va funksiyalari tizimini, shakllarini, xususiyatlarini, shakllanishini ta'minlovchi sotsial shart-sharoitlar va omillar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada bilishning ilmiy usullaridan – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, so'rovnomalar o'tkazish, statistik

ma'lumotlarning tizimli tahlili, funksional yondashuv, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

«huquqiy tizim», «huquqiy modernizatsiya», «huquqiy ijtimoiylashuv» tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra huquqiy tizimning barcha tarkibiy qismlarining faol harakatini ta'minlash, unda inson manfaatlarini to'laroq aks ettirish, xalqimizning huquqiy ongi va madaniyatini yanada yuksaltirish, fuqarolarning huquqiy ijtimoiylashuvini ta'minlash, shuningdek, huquqiy ijtimoiylashuv shaxs ijtimoiylashuvining alohida shakli sifatida tadqiq etildi, metodologik asoslari ochib berildi;

mamlakatimizdagi huquqiy muhit (vaziyat)ning tahlili asosida shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining quyidagi *shakllari*: a) odatiy; b) moslashuv va v) faol taraqqiyotga intilish shakllari hamda a) ko'nikma hosil qilish; b) tartibga solish (regulyativ); v) shaxs faolligini rivojlantirish (yaratuvchanlik) *funksiyalari* nazariy jihatdan asoslab berildi;

fuqarolarning huquqiy ijtimoiylashuvi orqali ularning tashabbuskorligini oshirish, huquq va erkinliklarini to'laroq amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari, insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin"ligi haqidagi taklif ilmiy asoslantirildi;

shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining mazmun-mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari chuqur o'rganildi, sotsiologik o'rganishlar o'tkazildi hamda ijtimoiylashuvning zamonaviy mexanizmlari haqida ilmiy xulosa va qarashlar asoslantirildi;

yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvining yanada takomillashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili Bolalar Ombudsmani faoliyatini tashkil etish, tegishli huquqiy mexanizmlarini yaratish bo'yicha taklif berildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ilg'or g'oya hamda qoidalar asosida inson qadrini ulug'lash, ushbu omilni faollashtirishga urg'u berildi. Fuqarolarning huquqiy ijtimoiylashuvi orqali ularning tashabbuskorligini oshirish, huquq va erkinliklarini to'laroq amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini joriy etishga oid taklif va tavsiyalar ilgari surildi;

shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi fenomenining yuridik tabiati va mohiyati ochib berildi, ularning ilmiy ta'rifi shakllantirildi, o'ziga xos xususiyatlari tavsiflandi;

jamiyatni jadal modernizatsiyalashning bugungi bosqichida o'sib kelayotgan yosh avlodning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini ta'minlovchi huquqiy kafolatlarni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuniga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etildi;

shaxs huquqiy ijtimoiylashuvida huquqiy tarbiyaning o'rni va ahamiyati muhimligidan kelib chiqqan holda huquqiy tarbiyaning zamonaviy usul va

vositalaridan samarali foydalanish va tarbiya jarayonida «oila – mahalla – maktab» kabi uchlikning hamkorligini yo‘lga qo‘yish muhimligi asoslantirildi;

yangilangan Konstitutsiyamizning ilg‘or prinsip va qoidalarini aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishga oid sa‘y-harakatlarni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning yanada faol huquqiy ijtimoiylashuvini ta‘minlashga erishiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyotiga asoslangan. Bundan tashqari, sotsiologik tadqiqotlar, anketa so‘rovi (380 nafar fuqarolar va huquqni qo‘llovchi amaliyot xodimlari o‘rtasida) o‘tkazilgan, statistik ma‘lumotlar va 50 dan ortiq huquqiy targ‘ibot, tekshirish va tahlil materiallari natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishdagi, xulosa, taklif va tavsiyalardan jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ichki ishlar organlarining faoliyatini, shuningdek mazkur tizimning jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat xavfsizligini ta‘minlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasida huquqiy targ‘ibot va huquqiy axborot yetkazish funksiyasi samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini rivojlantirishda, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, mazkur qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, kursantlar va talabalarni o‘qitishda, ularga «Davlat va huquq nazariyasi», «Ma‘muriy huquq» hamda «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Advokatura» fanlari bo‘yicha turli o‘quv va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda hamda bu yo‘nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

«huquqiy tizim», «huquqiy modernizatsiya», «huquqiy ijtimoiylashuv» tushunchalariga mualliflik ta‘riflari borasidagi haqidagi taklif tavsiyalaridan Respublika Ma‘naviyat-ma‘rifat markazining huquqiy targ‘ibot tadbirlarida, uslubiy tarqatma materiallarida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ma‘naviyat-ma‘rifat markazining 2024-yil 19-apreldagi №-05/12-18 – son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi huquqiy tizimni modernizatsiya qilish sharoitida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ushbu tushunchalarini aholi ongiga yetkazishga uslubiy jihatdan asos bo‘lgan;

huquqiy ijtimoiylashuvining quyidagi shakllari: a) odatiy; b) moslashuv va d) faol taraqqiyotga intilish shakllari hamda a) ko‘nikma hosil qilish; b) tartibga solish (regulyativ); d) shaxs faolligini rivojlantirish (yaratuvchanlik) *funksiyalari* haqidagi mualliflik ta‘riflari hamda taklif tavsiyalaridan Respublika Ma‘naviyat-ma‘rifat markazining huquqiy targ‘ibot tadbirlarida, uslubiy tarqatma materiallarida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ma‘naviyat-ma‘rifat markazining 2024-yil 19-apreldagi №-05/12-18 – son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi

shaxslarning huquqiy ijtimoiylashuvida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning rivojlanishiga xizmat qilgan;

fuqarolarning huquqiy ijtimoiylashuvi orqali ularning faolligi va tashabbuskorligini oshirish, huquq va erkinliklarini to'laroq amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari, insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkinligi haqidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 21-moddasida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasining 2024-yil 12-fevraldagi 02/4-18-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi fuqarolarning huquqiy ijtimoiylashuvi orqali ularning tashabbuskorligini oshirish, huquq va erkinliklarini to'laqonli amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini joriy etishga huquqiy asos yaratgan;

shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining mazmun-mohiyati, uning o'ziga hos xususiyatlari hamda ijtimoiylashuvning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirishda mahalliy davlat xokimiyati organlarining fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ta'lim va huquqiy ta'lim masalalari yuzasidan hamkorlik qilishi lozimligi borasidagi takliflari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" yangi tahrirdagi Qonunning 27-moddasida o'z ifodasini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasining 2024-yil 12-fevraldagi 02/4-18 – son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi huquqiy tizimni modernizatsiya qilish sharoitida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvida davlat va nodavlat tashkilotlarni o'zaro samarali hamkorlik qilishi uchun huquqiy asos yaratgan;

yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvining yanada takomillashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili Bolalar Ombudsmani faoliyatini tashkil etish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili Bolalar Ombudsmani faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi 2021-yil 28-oktabrdagi 1445-IV-son qo'shma qarorni tayyorlashda, shuningdek Bolalar ombudsmani to'g'risidagi qonunning bir qator moddalarini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2023-yil 3-martdagi 04/2-10/892-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi huquqiy tizimni modernizatsiya qilish sharoitida yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvining yanada takomillashtirishga hamda bu jarayonlarni barvaqt tashkil etilishini huquqiy jihatdan ta'minlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari, ilmiy xulosalar xalqaro hamda respublika darajasidagi ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar va davra suhbatlarida jumladan 6 ta xalqaro, 20 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya hamda davra suhbatlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish, shundan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (shundan 1 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘qqiz paragrafni o‘z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti yoritilgan, shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi asoslantirilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan aloqadorligi, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston milliy huquqiy tizimi: modernizatsiya va islohotlar bosqichida”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimizda kechayotgan innovatsion rivojlanish bosqichida milliy huquqiy tizimni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlari, ularning asosiy yo‘nalishlari hamda mazmun va mohiyati, ular borasida mamlakatimiz va xorijiy omillar tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlar ilmiy tahlil etilgan.

Bobning *“Huquqiy tizimni tadqiq etishning metodologik asoslari”*ga bag‘ishlangan birinchi paragrafida huquqiy tizim ilmiy tahlil etildi va maxsus usullar orqali o‘rganildi. Huquqiy tizimning «huquq tizimi» va «huquq oilasi» tushunchalaridan farqli, ayni vaqtda, ularning bog‘liqlik jihatlari yoritildi. Bir qator olimlarning «huquqiy tizim»ga oid fikrlari ilmiy tahlil etildi va ularning o‘ziga xosligi aniqlandi hamda mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ilmiy tasniflandi.

Muallifning e’tirof etishicha, X.T.Odilqoriyev, M.N.Marchenko, N.A.Garbatok, V.A.Kuchinskiy va Sh.U.Yakubovlar huquqiy tizimni bir necha yuridik vositalarni o‘z tarkibiga olgan harakatdagi dinamik hodisa sifatida ta’riflasalar, S.S.Alekseyev huquqiy tizim tushunchasi normativ tuzilma sifatidagi huquqning tuzilishini, vakolatli organlarning huquq ijodkorlik va huquqni qo‘llash faoliyatlaridagi roli va nisbatini qamrab olishini ta’kidlaydi. B.L.Nazarov va N.I.Matuzovlar huquqiy tizimni o‘zaro bog‘liq huquqiy vositalar yig‘indisi ekanini e’tirof etgan holda, ularning harakatiga funksional jihatiga e’tibor qaratmaydi.

Aynan yuqoridagi bir-birini inkor etuvchi xilma-xil fikrlar milliy huquqiy tizimning yagona ta’rifini ishlab chiqishga ehtiyoj mavjudligini namoyon etadi. Ilmiy baxs-munozara va tahlillar asosida muallif milliy huquqiy tizim tushunchasining quyidagicha zamonaviy ta’rifini taklif etadi: *«Huquqiy tizim muayyan makon va zamonda amal qiladigan barcha huquqiy voqeliklar (huquqiy hodisa hamda vositalar)ni o‘zida mujassamlashtirgan, ularning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanish tendensiyasini ta’minlaydigan, murakkab tarkibiy tuzilishga ega*

**bo'lgan uzluksiz harakatdagi ijtimoiy hodisadir».** Yangi ta'rifda izlanuvchi huquqiy tizimni huquqiy voqelik va vositalardan iborat ijtimoiy fenomen sifatida talqin etadi.

Mazkur bobning «*O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy modernizatsiya va islohotlarning mazmun va mohiyati*» deb nomlangan ikkinchi paragrafda "huquqiy modernizatsiya" kategoriyasi mufassal ilmiy tahlil etildi. Muallif tomonidan olimlarning ushbu tushunchaga oid bir qator fikrlari qiyosiy o'rganildi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy modernizatsiya jarayonlarining o'ziga xosligi, mohiyati, ijtimoiy ahamiyati chuqur ilmiy tahlil etilgan.

Dissertant mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarni tahlil etish barobarida, ularni muayyan bosqichlarga ajratib talqin etgan. Shuningdek, O'zbekistondagi huquqiy modernizatsiya jarayonlarining mazmuni xususida bir qator xorijlik ekspertlarning munosabatlari tahlil etilgan.

Ushbu bobning *uchinchi paragrafi* "*Huquqiy tizimni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda tadqiqotchi tomonidan hozirga qadar mamlakatimizda amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil etish asosida, huquqiy tizimni modernizatsiya qilishning quyidagi strategik yo'nalishlari va ular doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan amaliy chora-tadbirlar ko'rsatilgan: a) huquqiy tizimni liberallashtirish; b) huquqiy tamoyillar asosida faoliyat yuritish; v) qonun ijodkorlik jarayonini demokratlashtirish hamda sifatini oshirish; g) inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash; d) odil sudlovning samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini yaratish; e) huquqiy tarbiyani yanada kuchaytirish; j) huquqiy umumta'limni yanada takomillashtirish; z) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini izchil yuksaltirish; i) shaxsning huquqiy muhofazalanganligi kafolatlari va mexanizmlarini takomillashtirish; y) sud hokimiyatining mustaqilligini ta'imnlash, odil sudlovni demokratlashtirish; k) shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvini ta'minlash va h.k.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "**Huquqiy tizim tarkibiy elementlarini modernizatsiyalash va shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining xususiyatlari**" deb nomlanib, uning birinchi paragrafida "*Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi siyosiy – huquqiy kategoriya sifatida*" yuridik fanimizda qaror topayotgan yangi ilmiy hodisa ekanligi ko'rsatib berilgan.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy tizimni modernizatsiyalash sharoitida huquqiy mo'ljallar, maqsad hamda qadriyatlar, shuningdek shaxsning xulq-atvor namunalari va me'yorlari, mezonlari o'zgarmoqda, yangilanmoqda. Davlatimiz va jamiyatimiz oldiga qo'yilayotgan zalvorli vazifalarni uddalash, tabiiyki, jamiyat a'zolarining, individlarning sotsial-huquqiy faolligini, tegishli huquqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini, islohotlarning tashabbuskor ishtirokchisi bo'lishini talab etmoqda. Yangi davr talablariga mos barkamol, siyosiy va huquqiy jihatdan *ijtimoiylashgan* shaxsni shakllantirish kun tartibiga chiqdi. Paragrafda jamiyatni, shuningdek huquqiy tizimni modernizatsiyalashning bugungi holatida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi alohida dolzarb masalaga aylanganligi asoslantirildi.

Dissertatsiyada shu ustuvorlikdan kelib chiqib, yuridik fanimizda "shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi" kategoriyasining tushunchasini, yuridik tabiatini, mazmun-

mohiyatini, funksiyalari, shakllari (turlari) hamda o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy anglash va puxta tahlil etishga dastlabki urinish amalga oshirildi.

Ishda mutaxassislarining shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi fenomeni xususidagi turli fikr, qarash va ta'riflari tahlil etildi. Dissertant fikricha, huquqiy ijtimoiylashuv shaxs tomonidan huquqiy hayotni (voqelikni) bevosita anglashi (in'ikos qilish) bo'lib, buning natijasida unda huquqqa nisbatan qadriyatli munosabat shakllanib, u o'z navbatida, shaxsning huquqiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, huquqiy ijtimoiylashuv deganda, shaxs tomonidan normativ, huquqqa muvofiq xulq-atvor standartlarini o'zlashtirish jarayoni tushuniladi. Ma'lumki, har bir muayyan jamiyatga o'ziga xos davlat tuzumi, huquq haqidagi tasavvurlar, individning jamiyat hayotida ishtirok etish qoida va vositalari muvofiq bo'ladi. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi esa ushbu norma va qoidalarni o'zlashtirishdan iborat bo'ladi.

“Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uning jamiyat mo'tadil huquqiy hayotidagi sotsial va huquqiy qadriyatlarni maqsadli o'zlashtirishi va ularga moslashishi bo'lib, ular asosida individ tomonidan anglangan xulq-atvorini belgilovchi ijobiy huquqiy va ruhiy e'tiqodlar (ustanovkalar) shakllantiriladi. Bunda insonning moddiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi ijobiy omillarni hamda tarbiyasiga oid sa'y-harakatlarni faollashtirish nazarda tutiladi”.

Tadqiqot ishida shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi shakllantirildi: «*Huquqiy ijtimoiylashuv – individning jamiyatdagi huquqqa oid namunali xulqli bo'lishi, ijtimoiy-huquqiy norma, huquqiy-ruhiy mexanizm va huquqiy qadriyatlarni, tegishli xulq-atvor mezonlarini o'zlashtirish jarayoni hisoblanadi*». Huquqiy ijtimoiylashuv insonning huquqiy hayotga yaqinlashtirish, uning huquqiy voqeliklarni anglashi jarayonidir.

Huquqiy ijtimoiylashuv – nisbatan yangi kategoriya hisoblanib, uning mazmun-mohiyatini to'g'ri talqin etish, uni amalda samarali shakllantirish o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, birinchidan, individlarda huquqiy tafakkurning yuksalishiga xizmat qilsa, ikkinchidan, huquqiy islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga hissa qo'shadi, - deb ta'kidlaydi muallif.

Mazkur bobning “*Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi bosqichlari, tasnifi va funksiyalari*” nomli paragrafida mazkur hodisaning murakkab kompleks tabiatini inobatga olgan holda uning mazmun-mohiyatini to'liq tavsiflash uchun mazkur hodisaning shakllanish darajalari, bosqichlari va xususiyatlari ochildi, maxsus turlari hamda shakllarini ifodalovchi tasnifi (klassifikatsiyasi) keltirildi, qolaversa, u bajaradigan funksiyalar batafsil tahlil etildi.

Dissertatsiyada shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining quyidagi darajalari ko'rsatib o'tildi: a) shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining birinchi bosqichida huquqiy bilimlarni o'rganish, jamlashni amalga oshiradi; huquqiy muhitda (makonda) harakatlanish, buning uchun zarur xulq-atvorni, ko'nikmalarni o'zlashtiradi; b) ikkinchi bosqichda huquqiy qadriyatlar va institutlarning ma'no-mazmunini anglab eta boshlaydi. Ularni shaxs e'tiqodiga aylantirish jarayoni kechadi; v) uchinchi bosqichda shaxsning ichki e'tiqodiga aylangan huquqiy qoida, prinsip, normalar hamda huquqiy qadriyatlar amalga oshadi. Ya'ni, ular shaxs faoliyatida bevosita namoyon bo'ladi.

Izlanuvchining e'tirof etishicha, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Ular quyidagilardan iborat:

– *integratsiyalovchi* (birlashtiruvchi) *funksiya* – huquqiy qadriyatlar, normalar, xulq-atvor qoidalari shaxs ongining tarkibiy qismiga aylanadi (huquqiy ong, huquqiy xulq-atvorning natijasi);

– *normativ moslashuv funksiyasi* – shaxsning ijtimoiy va huquqiy normalarga mos harakatlanishi, faoliyat ko‘rsatishi;

– *tartibga soluvchi funksiya* – qat’iy shakllangan sotsial-huquqiy, ruhiy e’tiqod (ustanovka) larning shaxs xulq-atvorini belgilashi;

– *rivojlantiruvchi* (yaratuvchanlik, bunyodkorlik) *funksiyasi* – shaxs individual – huquqiy tajribaga ega bo‘lgan holda faol huquqiy faoliyat natijasida yangi huquqiy qoida, qadriyat va madaniyat qoidalari shakllantirishlari mumkin.

Dissertant shuningdek, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining tarbiyaviy, kishilarni faol harakatga safarbar etuvchi va rag‘batlantiruvchi funksiyalarini ilmiy talqin doirasiga kiritish taklifi asoslantirgan.

Tadqiqot ishida shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining namoyon bo‘lish shakllari ta’kidlandi:

a) odatiy (turi) shakli. Bunda shaxs oddiy, sodda huquqiy bilimlarga, aniq vaziyatlarda harakat qilishning oddiy huquqiy ko‘nikmalariga ega bo‘ladi;

b) egallangan (moslashgan) shakli. Bu shaklida shaxs jamiyatdagi huquqiy qoidalar hamda qadriyatlarni teran anglab, faol harakat (faoliyat)ni amalga oshirishi tushuniladi;

d) huquqiy ijtimoiylashuvning ilg‘or shakli. Bunda shaxsning mustaqil rivojlanish, jamiyat huquqiy hayotini, muayyan guruh jamoa hayotini takomillashtirish qobiliyati namoyon bo‘ladi.

Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining quyidagi turlari ko‘rsatib o‘tildi: a) oddiy, b) sust, d) konformistik, e) marginal, f) faol huquqiy xatti-harakat.

Dissertant ta’kidlashicha, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining namoyon bo‘lish darajalari, shakllari hamda uni shakllantirish mexanizmlari va funksiyalarini yaxshi anglash mazkur institutning jamiyatimiz hayotida munosib o‘rin egallashiga yo‘l ochib beradi. Shuningdek, uning usul va vositalarini takomillashtirishga ko‘maklashadi.

Ishning alohida paragrafi shaxs huquqiy ijtimoiylashuvida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning roli hamda ahamiyatini asoslantirishga bag‘ishlangan. Dissertant tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmoni bilan tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”ni bevosita amalga oshirilishining borishi va holati mavzuga tatbiqan tahlil etilgan.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi «**Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining dolzarb muammolari**» deb nomlanib, unda innovatsion rivojlanish bosqichida huquqiy tizimni tubdan yangilash va modernizatsiya qilish, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining dolzarb muammolarini ilmiy tadqiq etish natijasida, ushbu fenomenni modernizatsiya qilish istiqbollari tadqiq etilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi «*Yangi O‘zbekistonni qaror topishi sharoitida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi omillar*»ga bag‘ishlangan. Ushbu paragrafda yozilishicha, fuqarolarning huquqqa, huquqiy tizimga, huquqiy tartibga solish holatiga munosabati ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. Bundan tashqari, shaxsning siyosiy – huquqiy faolligini shakllantirish,

uning huquqiy ijtimoiylashuvini amalga oshirish jiddiy funksional ahamiyatga ega bo‘lib, unga turli – tuman omillar bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot ishida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi omillar muayyan guruhlariga ajratib tahlil etilgan. Ularni quyidagicha guruhlashtirish taklif etiladi:

- 1) mavjud bo‘lish shakliga ko‘ra: obyektiv va subyektiv;
- 2) ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra: ijobiy va salbiy;
- 3) ta’sirning davomlilikiga ko‘ra: doimiy va muayyan muddatli va h.k.

*Obyektiv omillar* individning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda uning xulq-atvoriga, yurish-turishiga, shuningdek huquqiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi voqea, hodisa hamda jarayonlardir. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi obyektiv omillarning misoli sifatida shaxs yashayotgan oilaviy, ijtimoiy muhitni, siyosiy va boshqaruv jarayonlarini va boshqa tashqi huquqiy voqeliklarni ko‘rsatishimiz mumkin.

*Subyektiv omillar* shaxslarning irodasi va harakatlari natijasida ularning huquqiy ijtimoiylashuviga ta’sir etadigan hodisa, predmet, jarayon va vositalar yig‘indisidir. Ular shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq holda va o‘z harakatlari natijasida yuzaga keladi hamda ularning huquqiy ijtimoiylashuviga ta’sir etadi. Mazkur o‘rinda shaxsning xohish – irodasi faqatgina ijtimoiylashishga qaratilmagan bo‘lishi ham mumkin.

Ishda individlarning siyosiy – huquqiy faolligi hamda ijtimoiylashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar turli guruhlariga bo‘lib, tasniflab tahlil etildi. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga aloqador yoxud ta’sir etuvchi omillarning quyidagi klassifikatsiyasi taklif etildi: 1) ijtimoiy – iqtisodiy omillar; 2) ijtimoiy – siyosiy omillar; 3) ijtimoiy – huquqiy omillar; 4) ijtimoiy – psixologik omillar; 5) ma’naviy – madaniy omillar.

Dissertant shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan huquqiy normalarni muttasil takomillashtirish zaruratidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 65-moddasiga o‘zgartirish kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Xususan, ushbu moddani quyidagicha bayon etish lozim: *«Har bir bola oilada tarbiyalanish va **ijtimoiylashish**, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasnodir. Bola o‘z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o‘z manfaatlari ta‘minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.*

*Bolaning ota-onasi bo‘lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta‘minlanadi».*

Tadqiqot ishida modernizatsiya jarayonlarida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga daxl etadigan omillar ta’sir kuchining davomiyligiga ko‘ra: *doimiy va muayyan muddatli* turlarga tasniflanishi asoslantirilgan.

Ushbu bobning *«Xorijiy mamlakatlar tajribasida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi masalalari»* nomli ikkinchi paragrafida huquqiy ijtimoiylashuv bo‘yicha xorijiy tajribani tahlil qilish shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining yangi va zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqishga, bu yo‘nalishdagi dunyo amaliyotini

qiyosiy-huquqiy tahlil etishga, ularning ijobiy jihatlarini mamlakatimiz amaliyotiga tatbiq etishga, milliy qonunchilikni boyitishga imkon yaratishi ta'kidlanadi.

Dissertant fikricha, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi shunday jarayonki, u ko'p jihatdan ijtimoiylashuv agentlari *ta'siriga* bog'liq. Shundan kelib chiqib, xorijiy tajriba tahlilini ko'proq ijtimoiylashuv Subyektlari xususiyatiga bog'liq holda tahlil etish lozim deb hisoblanadi.

Tadqiqot ishida e'tirof qilinishicha, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga oid xorij tajribasi tahlili quyidagi yo'nalishlarni aniqlashga imkoniyat yaratdi: birinchidan, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga hududiy joylashuvning o'ziga xos ta'siri, misol: sharq va g'arb madaniyatidagi o'ziga xoslik; ikkinchidan, har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, xalqning mentaliteti, urf-odat va marosimlari; uchinchidan, ijtimoiylashuv agentlarining ta'siri, xususan, ijtimoiy muhit, oila, ota-ona, ta'lim maskani va boshqalar; to'rtinchidan, shaxs huquqiy ijtimoiylashuviga globallashuv jarayonlarining ta'siri, internet, kommunikatsiya vositalari, zamonaviy texnologiyalar va h.k. ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu bobning «*Huquqiy tizimni modernizatsiyalash sharoitida shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining istiqbollari*» deb nomlangan uchinchi paragrafida O'zbekiston taraqqiyotining innovatsion, raqamli iqtisodiyotni qaror toptirish bosqichida davlat funksiyalarini yanada modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan.

Dissertantning fikricha, mamlakatimiz milliy huquqiy tizimini modernizatsiyalash jarayonida har bir shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uchun zarur shart-sharoitlarni, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratish lozim. Ular quyidagilardan iborat:

birinchidan, mamlakatimizda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uchun lozim darajadagi ijtimoiy – huquqiy muhit shakllantirilishi lozim;

ikkinchidan, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi masalasiga davlat siyosati darajasida yondashish lozim. Bu yo'nalishda, huquqiy ijtimoiylashuv mavzusini kompleks tarzda tadqiq etish, huquqiy ijtimoiylashuv agentlarining yetuklik darajasini oshirish lozim;

uchinchidan, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi huquqiy ong va madaniyat darajasiga bog'liq holda rivojlanishini inobatga olgan holda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish zarur;

to'rtinchidan, huquqiy tarbiya, huquqiy ta'lim va savodxonlikni oshirishning samarali tizimini vujudga keltirish darkor.

